

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14601750>

## RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN BOLALAR NUTQINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Abdullayeva Shamsiya Shukurullo qizi**

TDPU “Maxsus pedagogika va inklyuziv ta’lim” fakulteti

“Logopediya” mutaxassisligi 1-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning turlari haqida, ularning nutqidagi o‘ziga xos xususiyatlari va ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar nutqining buzilishiga ta’sir etuvchi omillar haqida ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** psixologik, aqliy, hissiyot, konstitutsional, somatogen, psixogen, serebral, grammatik, fonetik, fonematik, hissiy-emotsional soha, motivatsiya, biologik, genetik, pedagogik.

**Аннотация:** В данной статье представлены сведения о типах детей с задержкой психического развития, особенностях их речи, а также факторах, влияющих на речевые нарушения детей с задержкой психического развития.

**Ключевые слова:** психологический, умственный, чувство, конституциональный, соматогенный, психогенный, церебральный, грамматический, фонетический, фонематический, эмоционально-чувственная сфера, мотивация, биологический, генетический, педагогический.

**Anatation:** This article presents information about the types of children with mental retardation, their speech characteristics, and factors influencing speech disorders in children with mental retardation.

**Key words:** psychological, mental, feeling, constitutional, somatogenic, psychogenic, cerebral, grammatical, phonetic, phonemic, emotional-sensory sphere, motivation, biological, genetic, pedagogical.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bugungi jamiyatda maxsus yondashuv va ta'lim talab qiluvchi guruhlardan biri hisoblanadi. Bu toifadagi bolalarning rivojlanish jarayonlari, shu jumladan bilish faoliyatlarida ham sezilarli darajada so'nishlar, orqada qolishlar kuzatiladi. Bilish faoliyati- intellekti mantiqiy tafakkuri, idroki, xotirasi, ixtiyoriy diqqati, ish qobiliyati nutq va boshqalar birinchi o'rinda markaziy nerv sistemasining kasalliklari natijasida ruhiy rivojlanishi sustlashadi. Bunday bolalarda hissiyot, iroda sferasidagi kamchiliklar birlamchi, aqliy rivojlanishni orqada qolishi esa ikkilamchi hodisa bo'lib hisoblanadi.

Ruhiy rivojlanishida sezilarli darajada orqada qolgan bolalar xususiyatidan kelib chiqib ularga maxsus sharotlarda ta'lim beriladi. Bunday bolalar maktab dasturini sog'lom tengdoshlari qatori o'zlashtira olmaydi. Bu sababli ularga alohida e'tibor va ta'lim berish jarayoni shakllantirish kerak hisoblanadi. Olimlardan K.S.Lebedinskaya, G.P.Berto'n, E.M.Dunayeva va boshqalar ruhan sust rivojlanganlikni klinik-psixologik jihatdan quyidagi xillarga bo'lishni tavsiya etadilar: 1) konstitutsional; 2) somatogen; 3) psixogen; 4) serebral shakli. Ruhan sust rivojlanganlikning konstitutsional shaklini xarakterlovchi belgilarga quyidagilar kiradi: bolaning gavda tuzilishi sog'lom tengdoshlarinikiga nisbatan. 1-2 yosh kichik ko'rinadi. U o'zini bog'cha yoshidagilarga o'xshab tutadi va ta'lim olish uchun hali "yetilmagan" bo'ladi. Bunday bola o'quv faoliyatiga yaxshi kirishib ketmaydi, chunki unda o'qishga qiziqish yo'q, ish qobiliyati past. Mas'uliyatsizlik, motivlarning sustligi, ruhiy jarayonlardan analiz, sintez qobiliyatlarining yaxshi rivojlanmaganligi tufayli o'qish va yozishni, matematikani katta qiyinchiliklar bilan o'zlashtiradi. Mashg'ulotlar vaqtida tez charchab qolish hollari, bosh og'rib turishi ish qobiliyati, faollik yanada pasayib ketadi. Rivojlanishdagi bu kamchilikka bola onasining homiladorligi davrida qalqonsimon bezlari faoliyatining buzilganligi, yurak-tomir kasalliklari sabab bo'lishi mumkin.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar nutqi normal bolalarga nisbatan rivojlanish, shakllanish nuqtayi - nazaridan birmuncha orqada qoladi. Bu bolalarning nutqi faqat kechikib rivojlanib qolmay, balki ko'pincha sifati past bo'ladi va turli

darajadagi muammolar bilan kuzatiladi. Ushbu xususiyatlarni quyidagi yo‘nalishlarda tahlil qilish mumkin:

### **1. Lug‘at boyligi va so‘zlashuv darajasining sustligi:**

So‘z boyligi: Ushbu toifadagi bolalarning lug‘at zahirasi juda cheklangan bo‘ladi. Ular kundalik hayot uchun zarur bo‘lgan asosiy so‘zlarni ham o‘zlashtirishda qiyinchilikka duch keladi. So‘zlashuvdagi sustlik: So‘zlarni o‘zlashtirgan taqdirda ham ularni muloqotda ishlatish va to‘g‘ri bog‘lash ko‘nikmasi past bo‘ladi. So‘zlarni noto‘g‘ri qo‘llash: Bola o‘rgangan so‘zlarning ma‘nosini noto‘g‘ri tushunishi yoki ularni kerakli kontekstdan tashqarida ishlatishi mumkin.

### **2. Grammatik shakllarni qo‘llashdagi muammolar:**

Gap tuzishda xatolar: Bolalar oddiy gaplarni ham noto‘g‘ri tuzadi, masalan, so‘z tartibi buziladi yoki gapning bir qismi tushib qoladi. Fe’llarni shakllantirishdagi muammolar: Masalan, zamon shakllari (o‘tmish, hozirgi, kelasi) noto‘g‘ri ishlatiladi. Ot va boshqa so‘z turkumlarining kelishiklarini noto‘g‘ri ishlatish: Misol uchun, otlarni ko‘plikda ishlatishda yoki kelishik qo‘shimchalarini to‘g‘ri qo‘llashda qiyinchiliklar bo‘ladi.

### **3. Fonetik va fonematik rivojlanishdagi kamchiliklar:**

Tovushlarni talaffuz qilishdagi muammolar: Bolalar ko‘pincha ayrim tovushlarni talaffuz qila olmaydi yoki noto‘g‘ri talaffuz qiladi. Bu ayniqsa, sh, ch, r kabi murakkab tovushlarda kuzatiladi. Tovushlarni farqlashdagi qiyinchilik: Bolalar bir-biriga o‘xshash tovushlarni ajratishda qiynaladi, bu esa ularning tushunarli muloqot qilishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Nutqning ritmikasi va ohangidagi muammolar: Bolalar nutqida ohang va ritm odatda sust rivojlangan bo‘ladi, bu esa ularning muloqotini tushunishni qiyinlashtiradi.

### **4. Nutqning emotsional va ijtimoiy jihatlari passiv nutq:**

Ko‘pchilik hollarda bu bolalar ko‘proq passiv tinglovchi bo‘lib qoladi va o‘z fikrini ifoda etishga qiziqmaydi. Ijtimoiy muloqotda qiyinchiliklar: Bolalar odatda o‘z fikrlarini atrofdagilar bilan bo‘lishishda qiynaladi, bu esa ularning ijtimoiy adaptatsiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Emotsional so‘z boyligining cheklanganligi:

Ular his-tuyg'ularini ifoda etishda qiyinchiliklarga duch keladi, chunki bu soha rivojlanmagan bo'ladi.

### **5. Nutqni o'zlashtirishning sekinlashuvi:**

O'rganilgan nutq materialini unutish: Bolalar yangi o'rgangan so'zlar yoki gap tuzilmalarini tez unutadi va ular bilan bir necha marta ishlash talab etiladi.

So'zlarni avtomatlashtirishning sekinligi: Nutq faoliyati refleks darajasida shakllanishi uchun ko'p vaqt talab qilinadi. Ko'rsatma bo'lmagan holda ishlash qiyinchiliklari: O'rgatilgan materialni mustaqil qo'llashga doimo yordam yoki yo'riqnoma kerak bo'ladi.

### **6. Og'zaki va yozma nutqning bog'liqligi**

Og'zaki nutqidagi kamchiliklar yozma nutqning ham orqada qolishiga olib keladi. Bu maktab yoshida ko'proq namoyon bo'lib, o'qish va yozuvni o'zlashtirishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Harf va tovushlarni to'g'ri bog'lay olmaslik, diktant yoki yozma mashg'ulotlarda ko'plab xatolarni keltirib chiqaradi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar nutqining rivojlanishidagi psixologik jihatlar

**Motivatsiya yetishmovchiligi:** Bolalarda muloqot qilishga yoki yangi nutq materiallarini o'rganishga bo'lgan qiziqish past bo'ladi.

**O'ziga ishonchsizlik:** Nutqidagi kamchiliklar sababli, bolalar ko'pincha o'z fikrini ifoda qilishdan tortinadi, bu esa ularning ijtimoiy o'ziga ishonchini pasaytiradi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning nutq muammolari kelib chiqishi turli omillar bilan bog'liq bo'lib, ular genetik, biologik, psixologik va ijtimoiy sabablar natijasida yuzaga keladi. Ayniqsa, oilaviy muhit, tarbiya sifati va ta'lim tizimining imkoniyatlari ushbu muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, maxsus ta'lim va logopedik yordam ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar nutqini rivojlantirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Nutq rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar:

### **Biologik va genetik omillari**

Ko'pincha rivojlanish sustlashuvi tug'ma yoki irsiy omillar bilan bog'liq bo'ladi. Bu bolalarda miyadagi funksional o'zgarishlar yoki rivojlanish kechikishi natijasida nutqning shakllanishiga ta'sir qiladi.

### **Ijtimoiy va psixologik omillar**

Bolaning oilaviy muhiti, tarbiya usullari, atrof-muhit bilan o'zaro ta'sir qilish darajasi nutq rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ko'pincha yetarlicha e'tibor va muloqotning yo'qligi bolalarda nutqning orqada qolishiga olib keladi.

### **Pedagogik omillar**

Maxsus ta'limga ega bo'lmagan maktabgacha ta'lim muassasalari yoki logopedik xizmatning yo'qligi bolalarning nutq rivojlanishini sekinlashtiradi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda nutqni rivojlantirishda psixologik hamda logopedik yordam asosiy o'ringa chiqadi. Bunda logopedlar bolalar bilan ishlashda individual yondashuvdan foydalanishi kerak sanaladi. Mashg'ulotlar davomida lug'atni boyitish, talaffuzni to'g'rilash va grammatik shakllarni o'rgatish maqsad qilingan maxsus metodlar qo'llashi kerak. Bunda logopedi o'yin usullari keng foydalanishi lozim. O'yin shaklida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarning nutq rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish uchun mo'ljallangan maxsus o'yinlar (kartochkalar, tovushli kitoblar va boshqalar). Ruhiiy rivojlanishi sustlashgan bolalar nutqni rivojlantirish uchun texnik vositalar zamonaviy texnologiyalar, masalan, interaktiv logopedik dasturlar va moslashtirilgan audio-vizual materiallar bolalar nutqini rivojlantirish uchun samarali vosita sifatida foydalaniladi. Ota-onalar bilan ishlash ham ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni nutqini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ota-onalarga bolaning nutqini rivojlantirish uchun maxsus tavsiyalar beriladi. Uy sharoitida muloqot qilish, kitob o'qib berish va o'yinlar orqali bolalarning nutq faoliyatini qo'llab-quvvatlash o'rgatiladi.

**Xulosa** qilib aytadigan bo'lsak ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning psixologik holatidagi buzilishlar, motivning yo'qligi, pedagogik qarovsizlik,

qiziqishning yoʻqligi, oilaviy muhit va boshqa bir qator yetoshmovchiliklar oʻz-oʻzidan uning nutqiga taʼsir koʻrsatmay qolmaydi. Ruhiiy rivojlanishi sustlashgan bolalar nutqdagi lugʻat zaxirasining kambagʻlligi, grammatik buzilishlar, fonetik va fonematik jihatlardagi buzilishlar, nutqning emotsional va ijtimoiy jihatlardagi kamchiliklar, nutqni oʻzlashtirishning sekinlashuvi, ogʻzaki va yozma nutqning bogʻliqligidagi kamchiliklar kuzatiladi. Ushbu holatlarning oldini olishda yuqoridagi etiologik omillarni bartaraf etish va korreksiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati:**

1. “Maxsus pedagogika” M.U. Xamidova Toshkent-2018
2. “Maxsus pedagogika” P.M. Poʻlatova, L.Sh. Nurmuxamedova, D.B. Yakubjonova, Z.N. Mamarajabova, Sh.M. Amirsaidova, A.D. Sultanova.
3. Poʻlatxoʻjayeva M.R. Defektologiyaning klinik asoslari-T. 2012 yil
4. M. Ayupova “Logopediya” 2007 yil
5. “Logopediya” (L.S. Volkova tahriri ostida) –M
6. “Logopediya” (L. Moʻminova, M. Ayupova)-T
7. Ruhiiy rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida. K.K mamedov, Gʻ.G Shoumarov, V.L. Podobed.